

**O`ZBEKISTON VA FRANSIYANING STRATEGIK YAQINLASHUVI:
GLOBAL MAYDONDA YANGI HAMKORLIK MODELI**

*Muydinov Yaxyobek Dilshodbek o`g`li
O`zbekiston milliy universiteti 1-kurs magistratni*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O`zbekiston va Fransiya o`rtasidagi siyosiy iqtisodiy madaniy munosabatlarning shaklanishi,rivojlanishi va bugungi kundagi dolzarbliги tahlil qilinadi.Xususan diplomatik tashabuslar,strategik hamkorlik yonalishlari hamda xalqaro maydondagi o`zaro maanfaatlari yoritiladi.Ikki davlat o`rtasidagi siyosiy aloqalarning mintaqaviy va global geosiyosiyosiy mintaqaviy va global jarayonlardagi o`rnii va istiqbollari ham ko`rib chiqiladi

Annotation: This analyzes the formation, development and current relevance of political, economic and cultural relations between Uzbekistan and France. In particular, diplomatic initiatives, areas of strategic cooperation and mutual interests in the international arena are highlighted. The role and prospects of political relations between the two countries in regional and global geopolitical processes are also considered.

Аннотация: В данной статье политические, экономические и культурные отношения между Узбекистаном и Францией.Анализируются становление, развитие и современная актуальность отношений. В частности, выделены дипломатические инициативы, подходы стратегического сотрудничества и взаимная выгода на международной арене.

Kalit so`zlar: O`zbekiston, Fransiya siyosiy, iqtisodiy hamkorlik, Diplamatik munosabatlar, xalqaro hamkorlik, geosiyosiy jarayonlar, BMT ,YI, faxriy legion ordeni

KIRISH: Uzbekistan va Fransiya o`rtasidagi diplomatik munosabatlar 1992-yil fevralda o`rnatilgan,lekin bilamizku mamlakatlar o`rtasidagi diplomatik aloqalar uzoq tarixga borib taqaladi.Fransiya qiroli karl VI De Valua(1368-1422) va Amir Temur o`rtasidagi aloqalar savdo-sotiq va do`stona munosabatlarga oid yozishmalar bizga ma'lum.1992-yil O`zbekistonda Fransyaning elchixonasi ochildi.1995-yil O`zbekistonning Fransiyadagi elchixonasi o`z faolyatini boshladi.O`zbekiston Mustaqilikka erishgandan so`ng ikki tamonlama aloqalar rivojlanishining tamal toshi O`zbekistonning birinchi prezidenti Islom Karimovdur.1993-yil oktabrda Islom Karimov Fransiyaga davlat tashrifi bilan bordi,va bir qancha shartmnoamalarga imzo chekildi.O`zbekiston Respublikasi va Fransiya Respublikasi o`rtasidagi do`stlik va hamkorlik to`g`risidagi shartnoma,hukumatlar o`rtasida investitsiyalarni himoyalash va o`zaro rag`batlantirish to`grisidagi bitim va bir qancha shartnomalar

imzolangan.shuningdek Ikki davlat o`rtasidagi 1996-yil iyunda Florensiya va yevropa Ittifoqi rahbarlarining sammitida shuningdek,2002-yilda davlat Rahbarlarining natoga azo davlatlar sammitida uchrashuvlari ikki tamonlama aloqalarning yangi bosqichiga ko`tardi.1997-yilda Toshkentda Fransiya elchixonasi huzurida **Fransiya alyansi (Alliance Française)**tashkil etildi.Bu Frasuz tili va madaniyatini targ`ib qilishda muhim ro`l o`ynaydi.

MUHOKAMALAR: Afsuski 2000-yillarda O`zbekiston tashqi siyosatida ba`zi o`zgarishlar sodir bo`ldi 2005-yilgi Andijon voqelaridan so`ng O`zbekiston G`arb davlatlari bilan aloqalarini biroz chekladi va ko`proq Rassiya va Xitoy bilan yaqinlashishga harakat qildi.YI O`zbekistonga nisbatan qurol embargosi va viza chekllovleri kiritdi va bu jarayonda Fransiya ham YI pozitsiyasiga ergashdi.Shuningdek Fransiya 2005-yildan so`ng Markaziy Osiyoda strategik manfaatlarga unchalik e'tibor qaratmadı.Valyuta konvertatsiyasi muamolari,byurokratik tartiblar va xorijiy kampaniyalar uchun qulay sharoit yaratmadı.Keyinchalik Rassiya va Xitoy Bu hudududlarda katta ta'sirga ega bo`ldi va Fransyaning Iqtisodiy va diplomatik faolligi kamaydi.

2016-yildan so`ng O`zbekistonning Ochiq tashqi siyosat kursiga o`tishi va iqtisodiy liberalashtirish yo`lini tanlashi O`zbekistonni xalqaro maydonda yana faol ishtirokchi sifatida tanladi.2016-yildan ikki davlat o`rtasidagi siyosiy muloqot kuchaydi,O`zbekiston Tashqi Ishlar Vaziri Abdulaziz Komilov va Fransiya Tashqi Ishlar Vaziri bir necha Bor Uchrashdilar.Nihoyat 2018-yil 8-9-oktabr kunlari Fransiya Prezidenti E.Makron taklifi O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Fransiyada bo`ldi,22yil Ichida bиринчи мarta Parijdagi Ehtirom maydonida O`zbekiston Respublikasi Prezidentini rasmiy kutib olish marosimi Bo`lib o`tdi.O`zbekiston va Fransiya munosabatlarini yanada mustahkamlash masalari muhokama qilindi.

<>O`zbekiston yetakchisi O`z hamkasbiga E.Makronning O`zbek tiliga tarjima qilingan Revolvutsiya kitobini sovg`a qildi.

<>Savdo Iqtisodiy,Investitsiyaviy,Energetika texnologik va madaniy gumanitar sohasida bir qancha shartnomalar imzolandi.

2025-yil 12-mart kuni Shavkat Mirziyoyev Fransiya prezidenti taklifiga binoan Parija Tashrif buyurdi.

<>Tashrif chog`ida O`zbekiston Prezidenti Mirziyoyev Fransyaning Fransyaning Faxriy Legion ordeni bilan mukofotlandi.Bu orden qanday orden? Bu ordenning tarixi juda qiziq va Fransiya Imperatori Napoleon tomonidan 1802-yilda ta`sis qilingan va Ordenning Bir qancha darajalari mavjud,va Shavkat Mirziyoyevga eng oliv darajadagi qizil lentali topshirildi.

<>Ikki davlat O`rtasida 6,5mlrd yevrolik sarmoya loyihalari imzolandi Fransyaning Texnalogiyalarini O`zbekistonga olib kelish bo`yicha kelishuv imzolandi

↔ Sport Ma'daniyat Sa'nat, Musiqa, Kino, yo'nalishlarida o'zaro hamkorlik, Shuningdek Fransiya Ko`chalarining biriga Samarqand nomi beriladigon Bo`ldi

↔ Shuningdek Ikki davlat O`rtasida Savdo Investitsiyaviy va Energetika sohasida muhim sharnomalar imzolandi.

MUHOKAMALAR: So`ngi yillarda Fransiya va O`zbekistonning aloqalari ijobjiy ko`rinishga ega.

Fransiya qanchalar muhim Uzbekiston uchun va Yevropa Ittifoqi davlatlari ichida mavqeい qanday?

Fransiya Yevropa Ittifoqi davlatlari Ichida yadroviy yagona davlat .Fransiya aholi soniga ko`ra Yevropada Germaniyadan so`ng ikkinchi o`rinda ya`ni Fransiyaning aholisi 67mln kishini tashkil etadi.Fransiya texnologiyalar harbiy texnologiyalar sanaotlashuv va boshqa ko`plab indekslarga ko`ra nihoyatda muhim va dunyoning birinchi o`ntaligiga kiruvchi davlat hisoblanadi.Kollektiv g`arbdagi umuman g`arb taffakuriga ulkan hissa qo`shtan yirik davlatlardan bittasi aynan Fransiya.Bilamizki Fransiya Yevropa Ittifoqidagi siyosiy liderlardan biri,va Boshqa davlatlarga qaraganda Fransiya Yevropa Ittifoqi yo`nalishiga ko`proq ta`sir o`tkaza olish qobiliyatiga ega.Shuning uchun O`zbekistonning Fransiya bilan munosabatlaring ijobjiylashuvi,parallel ravishda Yevropa Ittifoqi bilan munosabatlari ijobjiyashuvini anglatadi,va nimqa uchun O`zbekiston bu qulay vaziyatdan foydalanmasligi kerak.Fransiya Respublikasi nima maanfatlarni ko`zlagan O`zbekistondan?

Bilamizki Fransiyaning 70% elektr energiyasi atom elektr stansiyalaridan olinadi,ya`ni dunyo davlatlari Ichida elektr energiyani atom energiyasidan oladigon davlat 70% ulushni oladigon davlat Fransiya hisoblanadi.Qolgan davlatlarda esa bu ulush 30% ga ham bormaydi.Shuning uchun Fransiyaga Uran mahsulotlari juda zarur.Fransiya Afrika davlatlaridan uran olar edi.Afsuski oxirgi paytlarda bu davlatlar bilan mavqeい va munosabati chigal ahvolga kelgan. Hozirgi kunda Fransiya Uranni Qozog`iston Niger va Namimbiyadan oladi va O`zbekiston 4-davlat hisoblanadi. Qolaversa, fransuz kompaniyalari O`zbekistonda yangi loyihalar orqali ko`plab daromadli loyihalarni amalga oshirishdan manfaatdor.

Fransiya Markaziy Osiyo davlatlarining geosiyosiy mustaqilligini mustahkamlashdan ham manfaatdor. Markaziy Osiyo – geosiyosiy chorrahada joylashgan mintaqa. Shimolda – Rossiya Federatsiyasi, sharqda – Xitoy Xalq Respublikasi, g`arbda – Bryussel va Vashington, janubda esa – Turkiya, Pokiston, Hindiston, Eron va arab dunyosi borki, ularning ham MO bilan o`zaro aloqalari va manfaatlari mavjud. Mana shu fonda, Yevropa Ittifoqi, jumladan, Fransiya Markaziy Osiyo davlatlari “shimol-sharq geosiyosiy tandem”ning bosimi ostida, monopoliyasi ostida qolib ketishini istamaydi. Mintaqada geosiyosiy diversifikatsiya, taqsimlanish bo‘lishidan manfaatdor.

TAHLIL VA NATIJALAR:

O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasida o‘zaro tovar aylanmasi 2003-yil 72,3 mln. AQSH dollari, shundan eksport 24 mln., import 48,3 mln. dollarni tashkil etdi. Eksportda paxta tolasi 74,4%, to‘qimachilik mahsuloti 13,4%, kimyo mahsulotlari 8,8%, agrosanoat majmuasi mahsulotlari 2,9%ni, importda esa elektronika va elektr uskunalar 26,2%, kimyo mahsulotlari 23,3%, mexanika uskunalari 13,7%, farmatsevtika va parfyumeriya mahsulotlari 13,6%, maishiy texnika 7,9%, transport vositalari 5,5%, oziq-ovqat mahsulotlari 3,6%ni tashkil etdi. 2003-yilda O‘zbekistonda F.ning 14 kompaniyasi va 2 banki ("Kredi Kommersial de Frans" va "Sosiyete Jeneral") ishladi. Bundan tashqari, O‘zbekistonda 15 qo‘shma korxona, 100% fransuz sarmoyasi bilan 2 korxona faoliyat olib boradi. 2004- yil 14-16 yanvarda O‘zbekiston-Fransiya savdoqitsodiy hamkorlik hukumatlararo komissiyasining 2-majlisi bo‘lib o‘tdi. Ikki davlat hamkorligi rejalariga muvofiq, "Sosiyete Jeneral" bankining krediti hisobiga "Buxoro viloyatida suv ta’mintoni yaxshilash" dasturi (8,1 mln. AQSH dollari) amalga oshiriladi va 2 ta "Boeing 767-300ER" samolyota (187,9 mln. AQSH dollari) sotib olinadi.

2022-yilning yanvar-sentyabr oylari davomida O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasidagi tovar ayriboshlash o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 5,6 foizga o‘sib, 219,8 mln dollardan 232,2 mln dollargacha yetdi, eksport hajmi 9 barobarga oshib 7,7 mln dollardan 69,6 mln dollarga o‘sdi. Import esa mos ravishda 212,1 mln dollardan 162,5 mln dollargacha, ya’ni 23,4 foizga kamaydi, salbiy saldo 204,4 mln dollardan 92,9 mln dollargacha qisqardi.

Fransiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi savdo va investitsiya sohasidagi sherikchilik munosabatlariga e’tibor qaratilsa, biroz kutilmagan ko’rsatkichlarga guvoh bo’lish mumkin. Misol uchun, 2019 yil yakuniga ko’ra, Fransiya O‘zbekistonning davlat tashqi qarzi bo’yicha (o’zlashtirilgan investitsiyalar bo’yicha) 4-o’rindagi hamkori - Yevropada birinchi (Xitoy, Yaponiya, Koreyadan keyin)-345,8 mln \$. Ammo, Fransiya O‘zbekistonning savdo hamkorlari beshligiga kirmaydi, u O‘zbekistonning 2020 yil yakuniga ko’ra 20-chi tashqi savdo hamkori (Yevropa mamlakatlari ichida 7chi, YI ga a’zo mamlakatlar ichida 6chi)[4]. Fransiya uchun esa, O‘zbekiston 120-savdo hamkor, Fransiyadan import bo’yicha 106-o’rinda, eksport bo’yicha 146-o’rindagi hamkori hisoblanadi.

O‘zbekistonning Fransiyada Elchilik ishlarini amalga oshirgan vakillari.

- 1994-1996 — Akmal Saidov
- 2003-2005 — Hamidulla Karomatov
- 2005-2008 — Ravshanbek Olimov
- 2008-2012 — Bahromjon A’loyev
- 2012-2017 — Ravshan Usmonov
- 2018-2024 — Sardor Rustamboyev

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu maqola mavzusi kompleks va ilmiy ravishda hali to`liq o`rganilmagan bo`lishiga qaramasdan, Fransiya tashqi siyosatining dinamikasi, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligi xususiyatlari, sohalari, muammo va istiqbollari, uning mintaqadagi manfaatlari va O`zbekiston va Fransiya hamkorligining tarixiy ildizlari, ikki mamlakat siyosiy tizimlari qiyosiy tahlili va O`zbekiston tashqi siyosati va geosiyosati kabi yo`nalishlarda ko`plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Xususan, Fransiya va xorijiy siyosiy fanlarida ushbu mavzular bo`yicha Jak Barra, Kolin Ferro, Sharlot Vang, F.Bozo, F.Sharilyon, Arman Kolin, Mari Kessler, Jak Barra Delor, Uber R.Shuvansi, TomasGomart, RobertOldrix, JonKonnel, kabi Olimlar tadqiqot olib borgan.

O`zbekiston va Fransiya munosabatlari yurtimizda asosan O`zbekiston tashqi siyosati umumiyligi tahlili, ikki davlat siyosiy va huquqiy tizimlari masalalari, ularning o`xshash va farqli jihatlari, hamkorlikning va madaniy muloqotning tarixiyasoslariga qaratilgan. Tadqiqotchilar orasida biz R.Farmonov, Q.Jo`rayev, A.Ayrapetov, L.Tereshenko, E.Nuritdinov, M.Rahimov, S.Saidolimov, S.Usmanov va boshqalarni alohida ajratib ko`rsatishimiz mumkin.

XULOSA:

So`ngi yillarda O`zbekiston va Fransiya munosabatlari ijobiy xolatga ega, Yevropa Ittifoqida katta mavqeiga ega bo`lgan va Dunyoda Yaim xolatiga ko`ra yuqori o`rinlarda turuvchi davlat bilan o`zaro hamkorlik qilsak Biz uchun juda foydali, Fransiya orqali O`zbekiston Energetika tizimi va avtomobilsozlik kabi bir qancha muhim sohalarni rivojlanmoqda, va O`zbekiston uchun juda maanfaatli davlat, shuningdek Fransiya uchun ham O`zbekiston Juda manfaatli davlat hisoblanadi. Bilamizki O`zbekiston Fransiyaga Uran Yetkazib beruvchi 4 davlatdan biri. Ikki davlat o`rtasidagi Strategik sherikchilik ya`ni uzoq muddatli hamkorlik ikki davlat uchun, ayniqsa O`zbekiston uchun juda foydali bo`lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Maxmasobirova, Y. O`zbekiston va Fransiya Hamkorligining istiqboldagi rivojlanish tendensiyalari // Scientific jurnal. - 2021. - Iyun.
2. Rabbimov K. Siyosiy tahlil: [Fransiya strategik shergimiz] // <https://Kun.uz/2025/03/13/Siyosiy-tahlil>
3. Ismoilov SH.A O`zbekiston va Fransiya munosabatlari yangi davri// Zamonaviy dunyoda ilm fan va texnologiya ilmiy konfrensiyasi: -B 237-238-239.
4. https://president.uz/uz/lists/categories/229?menu_=12
5. Паскаль Лоро. Франция- идеальный партнер для Центральной Азии. <https://cabar.asia/ru/paskal-loro-frantsiya-idealniy-partner-dlya-stran-tsentralnoj-azii>. 13.03.2020
6. France Economic Outlook, February 29, 2019, <https://www.focuc economics.com/countries/France>
7. International monetary fund, World Economic Outlook Database, October 2018, Report for Selected Countries and Subjects, <https://www.imf.org/external/pubs/ft/weo/2018/02/weodata/index.aspx>